



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINI ANIQLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

PhD Nurmatov Sherzod Rustamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0002-3394-2953

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi hamda soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar, barqarorlik reytingini xorij mamlakatlar tajribasi, reytingni aniqlash ko'rsatkichlari va baholash metodikalari hamda uning mezonlaridan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va sababchi omillar tahlil qilinib, ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, subsidiyalar, preferensiyalar, soliq imtiyozlari, soliq tushumlari, soliq ma'murchiligi.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОРЯДКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

PhD Нурматов Шерзод Рустамович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассмотрены внедрение рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства в Узбекистане и некоторые важные реформы, реализованные в налоговой системе, опыт зарубежных стран, показатели и методы отсенки определения рейтинга устойчивости, а также эффективное использование его критериев. исследованы и проанализированы причинные факторы, сформулированы научные и практические выводы и предложения.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, субсидии, преференции, налоговые льготы, налоговые поступления, налоговое администрирование.

ISSUES OF IMPROVING THE PROCEDURE FOR DETERMINING THE SUSTAINABILITY RATING OF BUSINESS ENTITIES IN UZBEKISTAN

PhD Nurmatov Sherzod Rustamovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article discusses the implementation of the sustainability rating of business entities in Uzbekistan and some important reforms implemented in the tax system, the experience of foreign countries, indicators and methods for assessing the determination of the sustainability rating, as well as the effective use of its criteria. Causal factors were investigated and analyzed, scientific and practical conclusions and proposals were formulated.

Key words: sustainability rating, subsidies, preferences, tax credits, tax revenues, tax administration.

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy siyosatining eng muhim elementlaridan biri – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilishni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda ularga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarori bilan Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etildi hamda 2024 yil 24 maydagi "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-193-son qarori bilan Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar ularning reyting darajasidan kelib chiqib taqdim etilishi belgilandi (Qaror, 2024).

Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar reyting darajasidan kelib chiqib belgilanishi o'z navbatida reytingni aniqlash ko'rsatkichlari xamda baholash metodikalarini chuqur o'rganish va tahlil qilishni taqozo etadi. Zero reytingdagi daraja tadbirkorning mavjud imtiyozdan qancha miqdorda, ya'ni to'liq yoki qisman foydalanish masalasini belgilab beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Panskovning (2013) fikricha, "muayyan faoliyat turlariga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlar subsidiyalar to'lashga teng bo'lib, tashkilotlarning faolligini oshirishga va ularning samaradorligini oshirishga olib kelishi mumkin".

Raxmatullaeva: (2016) "imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir".

Yushkova: (2017) "Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq imtiyozlari davlat soliq siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishga qaratilgan"-deb izohlaydi.

"Soliq imtiyozlari – bu iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari yoki bo'linmalarini ularning mahsuldorlik darajasini oshirishga rag'batlantirish uchun hukumat tomonidan belgilanadigan eng muhim paket. U iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan, bu esa mamlakatning yalpi ichki mahsulotini oshirishi kerak. Soliq imtiyozlarini iqtisodiyotning ayrim imtiyozli tarmoqlariga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan rag'batlantirish sifatida tavsiflash mumkin, bazan ular iqtisodiyotning jadal rivojlanishi uchun ichki yetkazib berishni to'ldirish uchun valyuta oqimini jalb qilishga qaratilgan" (Ibraheem va boshqalar, 2020).

Basseyya (2013) ko'ra, "soliq imtiyozlari – bu soliq to'lovchilarga ma'lum faoliyat turlari bilan shug'ullanishni rag'batlantirish sifatida davlat tomonidan taqdim etiladigan daromad yoki soliq majburiyatidan maxsus istisnolar, imtiyozlar yoki chegirmalar".

"Hukumat ularni muayyan yo'l bilan tutishga undash uchun har xil turdagi rag'batlarni taklif qiladi. Soliq imtiyozlariga misollar: kapital qo'shimchalari, investitsiya imtiyozlari, investitsiya solig'i krediti, soliqsiz dividendlar, zararni qoplash, soliq ta'tillari, past soliq stavkasi, ayrim kreditlar bo'yicha foizlardan ozod qilish" (Arogundade, 2005).

Normurzaev (2022) ilmiy ishlarida "Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati hamda soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot

tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshirish kerakligini maqsadga muvofiq” - deb hisoblaydi.

O‘rmonov (2018) tomonidan: “soliq imtiyozi – Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatini qisqartirish, soliq stavkasi va soliq bazasini kamaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati”.

Isayev (2019) fikricha esa, “soliq imtiyozlari – yuridik shaxslarning ayrim toifalarini soliqlar to‘lashdan qisman yoki to‘liq ozod qilish, yoki soliqlarni kamroq miqdorda to‘lash uchun berilgan imkoniyatlardir”.

Nurmatovning (2024) fikricha soliq imtiyozlari to‘g‘risidagi aksariyat ta‘riflarda soliq imtiyozlari soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan afzalliklar, shu jumladan soliqni to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati ekanligi keltirilgan. Barqarorlik reytingida esa undagi yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlari boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan afzalliklar ega bo‘lishmoqda, biroq ular da soliqni to‘lamaslik yoki kamroq to‘lash imkoniyati mavjud emas. Shundan kelib, barqarorlik reytingida yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlarida soliq imtiyozlarining to‘liq xususiyatlari mavjud bo‘lmasligi, ularga faqatgina tegishli mezonlarga asosan aniqlangan reytinglaridan kelib chiqib afzalliklar berilishini inobatga olib, ular soliq imtiyozlariga ega bo‘lishmaydi balki boshqacha tarzda ustunliklarga ega bo‘lishadi degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingiga doir ma‘lumotlar va ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi qaroriga asosan yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi rag‘batlantirish choralari joriy etildi (Qaror, 2024):

a) «AAA» toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

b) 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan er uchastkalari bo‘yicha dastlabki to‘lov summasi 35 foizdan kam bo‘lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo‘lib-bo‘lib to‘lash muddati miqdoridan qat‘iy nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilanadi;

v) «A» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga:

soliqlar bo‘yicha (qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to‘lov summasini qaytarish uch kun muddatda amalga oshiriladi;

tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi (Qaror, 2024).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 maydagi qarori bilan yuridik shaxslarga soliq va bojxona imtiyozlari xamda preferensiyalar (qo‘llab-quvvatlash choralari) ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda taqdim etilishi belgilandi:

a) qo‘llab-quvvatlash choralari "V" va undan yuqori reyting darajasiga ega tadbirkorlik subyektlariga amaldagisiga nisbatan quyidagi miqdorlarda taqdim etiladi:

"AAA" toifa - amaldagi miqdorning 100 foizi;

"AA" toifa - amaldagi miqdorning 90 foizi;

- "A" toifa - amaldagi miqdorning 80 foizi;
- "VVV" toifa - amaldagi miqdorning 70 foizi;
- "VV" toifa - amaldagi miqdorning 60 foizi;
- "V" toifa - amaldagi miqdorning 50 foizi;

b) qo'llab-quvvatlash choralari ro'yxatdan o'tganiga olti oy bo'lmagan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda PF-287-son Farmoniga muvofiq 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga ularning reyting darajasidan qat'iy nazar amaldagi miqdorlarda taqdim etiladi;

v) tadbirkorlik subyektlarining reyting darajasi:

pasaygan taqdirda, qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etish uch oy davomida saqlab qolinadi;

yuqorilagan taqdirda, qo'llab-quvvatlash choralari keyingi oydan boshlab yangilangan reyting darajasiga muvofiq miqdorlarda taqdim etiladi.

Belgilansinki, mazkur badda belgilangan mezonlar ushbu qaror qabul qilingunga qadar joriy etilgan qo'llab-quvvatlash choralari nisbatan tatbiq etilmaydi (Qaror, 2024).

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq imtiyozlari "Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi" (Kodeks, 2024).

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganib chiqsak. Xususan, Qozog'iston Respublikasi tajribasi ishonchli hamkorlar reestrda quyidagilar nazarda tutilgan.

Reestrni yuritilishidan ko'zlangan maqsad:

–Mahalliy va xorijiy tadbirkorlik subyektlarini mahalliy tadbirkorlik subyektlari orasidan hamkorlarni tanlash uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

–Ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning raqobatdoshligini oshirishga ko'maklashish;

–Ichki bozorda va xorijda mahalliy tadbirkorlik subyektlariga ishonchni oshirish.

Reestrga to'liq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etgan hamda mazkur Nizomda belgilangan mezonlarga javob beradigan barcha mulkchilik shaklidagi va tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik subyektlari kiritiladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini reestrda kiritish mezonlari mazkur nizomning ishonchlilik darajasini baholash metodikasi bilan belgilanadi.

Agar ushbu Nizomda belgilangan mezonlar bajarilgan bo'lsa, tadbirkorlik subyektiga "Atameken" Qozog'iston Respublikasi milliy palatasi a'zolariga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar ro'yxati va qiymati 21-bandiga muvofiq pullik asosda tegishli sertifikat beriladi. Xizmat narxi bazaviy miqdorning 20 barobariga teng bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi esa iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari ishonchli bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining nodavlat reestri yuritiladi. Mazkur reestr 2023 yil 25 avgustda 51-sonli Rossiya Savdo-sanoat palatasi raisi Buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Reestrda kiritilish shartlari:

- o'z faoliyatini so'nggi 3 yildan beri davom ettirayotgan bo'lish;
- tashkilot haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;
- qayta tashkil etish, tugatish va bankrotlik holatida bo'lmaslik;
- soliqlar, yig'imlar, va boshqa to'lovlardan qarzdorlikni bo'lmasligi;
- insofsiz yetkazib beruvchilar hamda pudratchilar reestrda bo'lmaslik;
- yil yakuniga ko'ra, tashkilotning moliyaviy ahvoli "SSS – qoniqarsiz" holatda bo'lmasligi;
- reestrda kiritilish uchun to'lanadigan bir martalik to'lovni to'lagan bo'lishi kerak.

Belorussiya Respublikasi tajribasida ishonchli hamkorlar reytingi Belarus Savdo-sanoat palatasining 2019 yil 30 dekabrda 91-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Reestrda kirish shartlari quyidagicha:

- kerakli hujjatlarni taqdim etilganligi, a'zolik va kirish badallarining to'langanligi;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganiga kamida 3 yil to'lgan bo'lishi;
- to'liq shakllangan ustav fondiga ega bo'lishi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida bo'lmasligi;
- davlatga to'linishi kerak bo'lgan soliq, yig'imlar va boshqa to'lovlardan qarzdorligi bo'lmasligi;
- reestrda kirish yuzasidan berilgan arizani ko'rib chiqish muddati 30 kunni tashkil etadi.
- reestrda kiritilgan tadbirkorlar 2 yil davomida mazkur reestrda bo'ladi.

Reestrda chiqish asoslari esa:

- sertifikat amal qilish muddatini tugaganligi;
- tadbirkorlik subyektini bankrotligi yoki tugatilganligi;
- tadbirkorlik subyekti tomonidan noto'g'ri va sohtalash-tirilgan ma'lumotlarni taqdim etilganligi;
- nizom talablariga rioya qilinmaganligidir.

Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi Qarori bilan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizomga asosan reytingni baholash metodikasi uchta toifa mezonlarga bo'linadi - umumiy, pasaytiruvchi va rag'batlantiruvchi (Qaror, 2024).

Mazkur 3 ta toifaning har birining mezonlariga oldingi tadqiqotlarimizda to'xtalib o'tganligimiz sababli, ushbu tahlillarimizda mezonlarning ayrimlariga chuqur to'xtalib o'tish maqsad qilingan. Shundan kelib chiqib, ushbu nizomning munozarali holatlari bo'yicha tahlillarimizni keltirib o'tmoqchimiz. Xususan:

- Nizomning 31-bandida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligini ta'minlash ko'rsatkichini baholashda tadbirkorlik subyekti xodimlarining umumiy sonida «Yagona ijtimoiy reestr», «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari»ga kiritilgan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligi ta'minlanganda rag'bat ballari berilishi nazarda tutilgan.

Reyting baholashning avtomatlashtirilgan tartibda, inson omilisiz amalga oshirilishini inobatga olgan xolda yuqoridagi axborot tizimlarini "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" elektron platformasi bilan integratsiya qilinishiga zarurat tug' ilmoqda.

- Ushbu Nizomning 2-mezonida EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatayotgan sohaning o'rtacha ko'rsatkichidan:

70 foizdan yuqori bo'lsa — 10 ball, 50 — 70 foizgacha bo'lsa — 5 ball, 25 — 50 foizgacha bo'lsa — 2 ball beriladi.

Tahlillarga asosan har bir soha va hududning o'rtacha EBITDA bo'yicha rentabellik darajasidan 50 yoki 70 foizga oshirish imkoniyati amaliyotda kam xollarda mavjud. Masalan, Metallurgiya sanoat sohasi bo'yicha Navoiy viloyatida o'rtacha EBITDA rentabellik darajasi 21 foizni tashkil qilsa, unda yana 70 foizga ortiq bo'lgan EBITDA rentabellik darajasi ko'rsatkichi mavjud emas.

Shunga asosan Nizomning EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatayotgan sohaning o'rtacha ko'rsatkichidan 70 foizdan yuqori bo'lsa, 50 — 70 foizgacha bo'lsa hamda 25 — 50 foizgacha bo'lsa, tadbirkorlik subyektlari mazkur ko'rsatkich bo'yicha ballarni olish imkoniyati bo'lmasligini inobatga olib, foiz darajasini pasaytirilishi lozim bo'ladi.

- 3-mezonda ko'chmas mulk obyektlari yoki er uchastkalarining mavjudligi, foydalaniladigan er uchastkalari (shu jumladan uzoq muddatli ijaradagi qishloq xo'jaligi yerlari), shuningdek mulk huquqi yoki ijarah huquqidagi ko'chmas mulk, ijarada - 7 ball, o'z mulkida - 10 ball berilishi, agar mavjud bo'lmasa, shuningdek tadbirkor ko'rsatilgan manzilda harakat qilmasa - 5 ball chegirilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasida Oilaviy korxonalar ishtirokchilariga mulk huquqi asosida yoki boshqa

qonuniy asosda tegishli bo'lgan turar joylar va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, shu jumladan ishlab chiqarish, xo'jalik binolari va boshqa imoratlar oilaviy korxonalar faoliyati amalga oshiriladigan joy ekanligi;

Oilaviy korxonalar ishtirokchilariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylarni ulardan oilaviy korxonalar faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan joylarga aylantirish talab qilinmasligi belgilab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, Oilaviy korxonalar ball berilishida yuqorida keltirilgan jihatlarni inobatga olinishi lozim.

- 4-mezonda bir nafar xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasini baholashda tadbirkorlik subyekti tomonidan bir nafar xodimga hisoblangan ish xaqi summasi tegishli hududdagi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha hisoblangan o'rtacha ish haqi miqdoridan:

100 foiz va undan yuqori bo'lsa - 10 ball, 75 — 100 foizgacha bo'lsa - 8 ball, 50 — 75 foizgacha bo'lsa - 6 ball, 25 — 50 foizgacha bo'lsa - 4 ball, 25 foizgacha bo'lsa — 2 ball beriladi.

Bunda tadbirkorlik subyekti tomonidan bir nafar xodimga hisoblangan ish haqi summasi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lsa — 5 ball chegiriladi.

Mazkur mezon bugungi kunda ish haqi summasini soha va hududda o'rtacha miqdorini aniqlashda tadbirkorlik subyektlari muayyan bir hududda bir xil faoliyat bilan shug'ullanish holatlari 1 tani yoki kam sonni tashkil qilishi ushbu holatni solishtirishni imkoniyatini bermaydi.

Shuningdek, ayrim faoliyat turlari bo'yicha davlat ulushi mavjud yoki yuqori rentabellikka ega nufuzli korxonalarda ish haqi miqdori yuqoriligi sababli tadbirkorlik subyektlari o'rtasida haqqoniy mutloq raqam kiritilishi (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga bog'lash) lozim bo'ladi.

- 8-mezonda elektron xisobvaraqa-fakturalarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holatini baholashda hisobot davrida tovarlar jo'natilgan (topshirilgan) yoki xizmatlar ko'rsatilgan, ishlar bajarilgan kalendar sanada rasmiylashtirilgan elektron xisobvaraqa-fakturalar summasining jami elektron hisobvaraqa-fakturalar bo'yicha tovar aylanmasidagi ulushi (foizi):

100 foiz bo'lsa — 10 ball, 75 — 99 foizgacha bo'lsa — 7 ball, 50 — 75 foizgacha bo'lsa — 5 ball, 25 — 50 foizgacha bo'lsa — 2 ball, 25 foizgacha bo'lsa — 1 ball beriladi;

rasmiylashtirilmagan bo'lsa — ball berilmaydi.

Elektron hisobvaraqa-fakturalarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holatini baholashda amaldagi barqarorlik reytingini aniqlashda faqat bir tomonlama yondashuvga asoslangan bo'lib, amaliyotda elektron xisobvaraqa-fakturalardan tashqari boshqa zamonaviy mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish mexanizmlari inobatga olinmagan.

Shundan kelib chiqib, mazkur mezonga eksportni tasdiqlovchi hujjatlar, onlayn nazorat kassa texnikalari cheklari, elektron tijorat to'lov cheklari summasining jami elektron xisobvaraqa fakturalar, eksportni tasdiqlovchi hujjatlar, onlayn nazorat kassa texnikalari cheklari, elektron tijorat cheklari tovar aylanmasidagi ulushiga nisbatan olish maqsadga muvofiq.

- 10-mezonda soliq organlari tekshiruvdan oldingi tahlil (avtokameral) natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati soliq organlari axborot tizimlaridan foydalangan xolda o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida kamchilik aniqlanmaganligi yoki ularning bartaraf etilganligidan kelib chiqib quyidagicha baholanadi:

kamchilik aniqlanmagan yoki keltirilgan kamchiliklarning mavjud emasligi asoslantirilgan bo'lsa — 10 ball, kamchiliklar ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan bo'lsa — 7 ball beriladi.

Bunda kamchiliklar bartaraf etilmagan yoki keltirilgan kamchiliklarning mavjud emasligi asoslantirilmagan bo'lsa — 5 ball chegiriladi.

Ushbu mezonda xam kamchiliklar ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan bo'lsa — 7 ball berilishi, kamchilik aniqlanmagan yoki keltirilgan kamchiliklarning mavjud emasligi

asoslantirilgan bo'lsa — 10 ball berilishi tadbirkorlik subyektlari uchun tushunarsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunda mazkur 2 ta mezonni birlashtirgan holda kamchiliklar ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan taqdirda xam 10 ball berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

- Rag'batlantiruvchi toifa mezonlardagi xodimlar mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar sonining ortishi ko'rsatkichini baholashda un ikki oy oldingi hisobot davriga nisbatan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi olgan xodimlar sonining yillik o'rtacha soni:

50 foiz va undan yuqori bo'lsa — 15 ball, 40 - 50 foizgacha bo'lsa - 10 ball, 30 - 40 foizgacha bo'lsa - 8 ball 20 - 30 foizgacha bo'lsa - 6 ball, 10 - 20 foizgacha bo'lsa - 4 ball, 1 - 10 foizgacha bo'lsa - 2 ball beriladi.

Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari uchun ushbu ko'rsatkich faoliyat davrining ikkinchi oyidan boshlab o'tgan oyga nisbatan solishtiriladi.

Mazkur mezon rag'batlantiruvchi toifadagi mezonlardan bo'lganligi sababli hamda uni soddalashtirish maqsadida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar soni har 100 nafar ishchi uchun — 1 balldan va har 1 000 nafar va undan yuqori bo'lganda - 10 ball berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- Nizomning yakunlovchi qoidalar 37-bandiga asosan sohalar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo'yicha alohida, tumanlar (shaharlar) kesimida alohida, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar bo'yicha alohida hisoblanishi belgilangan.

Bunda sohalar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining soliq to'lovchilari aksariyati viloyatlardan bo'lib, Toshkent shahri va viloyatlar markazidagi shaharlar bilan solishtirib o'rtachasi aniqlanadi. Bunda tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar sohaning o'rtacha ko'rsatkichidan ortiq ko'rsatkichga erishishi imkoniyati Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan korxonalaridan ancha pastni tashkil etadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi o'rganilgan muammolar va tahlillardan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi.

2-mezon bo'yicha quyidagi o'zgartirishlarni kiritish:

EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatayotgan sohaning o'rtacha ko'rsatkichidan:

20 foiz va undan yuqori bo'lsa - 10 ball, 15-20 foizgacha yuqori bo'lsa - 8 ball, 10-15 foizgacha yuqori bo'lsa - 6 ball, 5-10 foizgacha yuqori bo'lsa - 4 ball, o'rtachaga teng yoki 5 foizgacha yuqori bo'lsa - 2 ball beriladi.

Bunda tegishli hududdagi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha tadbirkorlik subyekti yagona bo'lgan xollarda mazkur mezonni hisoblashda (iqtisodiy faoliyat turi inobatga olinmagan xolda) hududni o'rtacha ko'rsatkichi bilan solishtirishni nazarda tutish.

3-mezon bo'yicha er uchastkalari va (yoki) ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi tadbirkorlik subyekti foydalanayotgan er uchastkalari (shu jumladan, qishloq xo'jaligi uchun uzoq muddatli ijaraga ajratilgan) va (yoki) mulk huquqi yoki ijara huquqi asosida ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi (ijara shartnomalari hisobga qo'yilganligi)) quyidagicha baholanadi:

mulk huquqi asosida bo'lsa — 10 ball (bunda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk xam hisobga olinadi) degan jumlaning qo'shish.

4-mezon bo'yicha esa quyidagilarni nazarda tutish:

Bir nafar xodimga tugri keladigan ish haqi jamg'armasini baholashda tadbirkorlik subyekti tomonidan bir nafar xodimga hisoblangan ish haqi summasi miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib:

Toshkent shahar uchun - 3 barobardan 4 barobargacha - 5 ball; 4 barobardan yuqori bo'lsa - 10 ball. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar uchun -2 barobardan 3 barobargacha - 5 ball, 3 barobardan yuqori bo'lsa - 10 ball beriladi. Mazkur band bo'yicha o'rtacha bir nafar xodimga hisoblangan ish haqi summasi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lsa - 5 ball chegiriladi xamda o'tgan oyga nisbatan ishchi xodimlar soni 10 foizdan ortiq kamaygan xollarda ball berilmaydi.

8-mezon bo'yicha Elektron hisobvara-fakturalarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holatini baholashda hisobot davrida tovarlar jo'natilgan (topshirilgan) yoki xizmatlar ko'rsatilgan, ishlar bajarilgan kalendar sanada rasmiylashtirilgan elektron xisobvara-fakturalar, jumladan eksportni tasdiqlovchi hujjatlar, onlayn nazorat kassa texnikalari cheklari, elektron tijorat to'lov cheklari summasining jami elektron xisobvara fakturalar, eksportni tasdiqlovchi hujjatlar, onlayn nazorat kassa texnikalari cheklari, elektron tijorat cheklari bo'yicha tovar aylanmasidagi ulushidan (foizidan) kelib chiqib ball taqdim etishni nazarda tutish.

Shuningdek, "Solik xamkor" tizimi orqali soliqqa oid huquqbuzarlik fakti bo'yicha murojaat kelib tushgan taqdirda va (yoki) naqd va terminal orqali amalga oshirilgan savdo tushumi bilan ONKMga kirim qilingan savdo tushumida tafovut aniqlanganda shu oy uchun - 5 ball chegirilishini belgilash.

-10-mezon bo'yicha Soliq organlari tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati soliq organlari axborot tizimlaridan foydalangan xolda o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida kamchilik aniqlanmaganligi yoki ularning bartaraf etilganligidan kelib chiqib quyidagicha baholanadi:

kamchilik aniqlanmagan yoki keltirilgan kamchiliklarning mavjud emasligi asoslantirilgan yoxud kamchiliklar ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan bo'lsa - 10 ball berishni nazarda tutish.

- Rag'batlantiruvchi ya'ni qo'shimcha ball beruvchi mezonlardan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar soni:

har 100 nafar ishchi uchun — 1 balldan, 1 000 nafar va undan yuqori bo'lganda - 10 ball berilishini belgilash.

- Nizomning yakuniy qoidalar qismida sohalar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar ro'yxatdan o'tish joyiga qarab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lovchilar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar bo'yicha alohida, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar bo'yicha tumanlar (shaharlar) kesimida alohida hisoblanishini nazarda tutish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Arogundade, J. A. (2005). *Nigerian income tax and its international dimension*. Ibadan: Spectrum Books Ltd

Bassey, U.O. (2013). *Companies taxation in Nigeria*. Lagos: The CIBN Press Ltd. Business Day (Newspaper) 26th August

Ibraheem, Abdullahi Aderemi, Olaitan, Wasiu Abiodun, Oyetola, Daud Olowale, Omoniyi, Oyelowo Oyetade, Amolegbe, Sikiru Adesola. (2020) *Impact of Tax Incentive on Industrial Growth and Development*. *International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR)* ISSN: 2643-900X Vol. 4, Issue 7, July, Pages: 171-179 www.ijeais.org/ijamsr 171

Isaev F.I. (2019) "Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish". *i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya*. -116 bet.

Kodeks (2024) *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasi*.

Normurzaev U.X. (2022) *Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot*. 08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*.

Nurmatov Sh.R. (2024) "Barqarorlik reytingi mezonlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish" *Journal of new century innovations. Volume- 53_Issue-1_May*, pp. 216-228.

O'rmonov J.J. (2018) *Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.*

Panskov V.G. (2013) *Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii. [Tekst] / V.G. Panskov. – M.: Finansi i statistika, – 478.*

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarori.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-193-son qarori.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-55-son qarori.

Raxmatullaeva F. (2016) "Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi roli" *Moliya ilmiy jurnali №2* 108 bet.

Yushkova O.O. (2017) *Vliyanie nalogovix lgot na effektivnost predprinimatelskoy deyatelnosti Rossiyskoy Federatsii. Nauka XXI veka №4.*